Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, avvalo, shu tarmoq ichidagi raqobatga mahalliy va jahon bozorlarida bardosh beradigan klasterlarni shakllanishi amalga oshirildi. Shuning uchun iqtisodiyotni innovasion taraqqiy ettirishda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy usullari yetarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda, klaster nazariyasini amaliyotga tatbiq etish eng maqbul yo‘l hisoblanmoqda. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va unga xizmat ko‘rsatuvchi agrosanoat majmuasi sohalari o‘rtasida xo‘jalik aloqalarining tobora rivojlanib va mustahkamlanib borishi ta’sirida tarmoqlararo integratsiyalashuv jarayonlari kuchayib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish usullaridan biri sifatida klaster usulidan keng foydalanadi. Klaster strategiyasi Yevropa Ittifoqi tomonidan keng targ‘ib qilinadi. Yevrokomissiya ittifoq hududida klaster rivojlanishini yanada qo‘llab-quvvatlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari

[2] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4575.28.01.2020 ҚАРОРИ. ПҚ-4575.28.01.2020 Ўзбекистон Республтикасинин қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси

to‘g‘risida”gi farmoni bilan paxta-to‘qimachilik klasterlarini o‘rta muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan[3]. 2018 yil 25 yanvarda esa Vazirlar Mahkamasining “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[4]. Mazkur qarorga muvofiq respublika hududlarida 16 ta paxta-to‘qimachilik klasteri tashkil qilinib, ularga fermer xo‘jaliklarining qariyb 159 ming gektardan ortiq ekin maydoni biriktirildi. Bunda:

1. Davlat xo‘jaliklari, jamoa xo‘jaliklari va boshqa korxonalar birgalikda hamkorlikni amalga oshirish uchun ixtiyoriy ravishda birlashadilar.
2. Xo‘jaliklarning ishlab chiqarish tuzilmasi va iqtisodiyotini hisobga olgan holda tashkiliy shakllar, yo‘nalishlar va ishlar ketma-ketligini tanlashga ilmiy yondashuv amalga oshiriladi.
3. O‘zaro xo‘jalik birlashmalari tarkibiga kiruvchi barcha korxona va tashkilotlarning iqtisodiy mustaqilligi to‘la saqlanib qoladi.
4. Asosiy shartlardan biri ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rivojlantirishda ham, umuman assosiatsiya hamda har bir korxonaning barcha ishtirokchilarning moddiy manfaatidir.
5. Katta hajmda mahsulot ishlab chiqarish va sotishni ko‘paytirish, ularning sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.
6. Birlashmalar va korxonalar faoliyatini boshqarish demokratik markazlashuv tamoyillariga asoslanadi.[5]

Klaster strategiyasi jozibadorligi, yo‘nalishlarning turli-tumanligi bois innovasion klasterlarni davlatning o‘zi shakllatirishini taqozo etmoqda. Shu bilan birga ayni paytda qishloq xo‘jaligi korxonalarining integratsiyalushuvi bilan bog‘liqdir.

«Integratsiya» atamasi Farbiy Yevropa mamlakatlari davlatlararo institutlarni yarata boshlaganida, shuningdek iqtisodiy siyosatni koordinatsiyalash va savdo erkinligini ta’minlash maqsadida iqtisodiy birlashmalarni tuzish vaqtida xalqaro munosabatlarda ishlatila boshlandi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi taromoqlarini integratsiyallashuvi ularning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda agroklasterlarni rivojlanishi uchun integratsiyallashuvida ularning o‘ziga xos xusuiyatlarini inobatga olish zarur deb xisoblaymiz. .

Bulardan biri, bu hududning joylashuvi , shu hududda resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi hisobga olinib, klasterlarni rivojlanishiga keng imkon

[3] Ш.Мирзиёев. Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ 5285 сонли фармони 14.12.2017 й.

[4] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 744-сон 19.09.2018й. Қарори пахта-тўқимачилик ишлаб чиқаришларини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида

[5] Тошматов, Р. Х. Фермер хўжаликлари кооперацияси ва бозор инфратузилмалари ривожланишини бошқариш. Номзодлик диссертаияси, Ташкент.2009й

yaratiladi. Shu hududda agroklasterlarni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan logistika, tashkiliy boshqaruv, innovasion va texnologik omillarni qamrab olish darajsi kiradi. Bu turli tashkilotlarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini (xarajatlarni taqsimlash, soliqni optimallashtirish, innovatsiyalar) boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratilishini talab etadi.

Qishloq hududlarini ijtimoiy rivojlantirishi uchun imkon yaratiladi. Klasterlarni rivojlanishi bilan hududning mehnatga layoqatli mehnat resurslari ish bilan ta’minlanadi. Shu bilan birga hududning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlanishini o‘z ichiga oladi.

Klasterlarni yaratishda tizimliylikka asoslangan . Klaster tuzilmasida turli xo‘jalik sub’yektlarining o‘zaro bog‘ligi bilan har bir xo‘jalik sub’yekti tashkiliy –iqtisodiy faoliyatini o‘zi boshqaradi. Kichik va o‘rta agrobiznesning saqlanib qolishi va rivojlanishining barqarorligi, iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida kafolatlar asosida kredit olish imkoniyati yaratiladi.

Korxonalarning zanjirli bog‘liqligi asosida infratuzilma ob’yektlaridan samarali foydalanish imkoniyatini paydo bo‘ladi. Korxonalarga investisiyalarni jalb etishda investisiya dasturlari va loyihalarda erkin ishtirok etish imkoni yaratiladi.

Ushbu omillardan kelib chiqib, agroklasterlani rivojlanishi natijasida erishiladigan natijalarga V. A Kundius quyidagicha fikr bildiradi”.... agrosanoat majmuasidagi klasterlar hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning ijtimoiy muammolarini hal etish orqali biznes bilan o‘zaro hamkorlik qilish, vertikal tashkil etilgan biznes guruhlariga qaramlikni kamaytirish uchun qulay vositadir.”[6]

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, tadbirkorlik yuridik shaxs yoki to‘g‘ridan – to‘g‘ri jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirokor) tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin amalga oshiriladi. Shunga asoslangan holda klasterlar tarkibidagi xo‘jalik sub’yektlari biznesda erkin faoliyat yuritish tizimliyligi yaratildi.

Qishloq xo‘jaligi klasterining iqtisodiy o‘zagi odatda ishlab chiqarish faoliyati jarayonida o‘zining istiqbolliligini, mintaqa uchun ahamiyatini va raqobatbardoshligi oshishini isbotlagan yirik sanoat korxonasidan iborat bo‘ladi. Yadro atrofida o‘rta va kichik korxonalar, yetkazib beruvchilar va infratuzilma jamlangan bo‘linmalardan tashkil topadi[7].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi korxonalari integratsiyasi,ya’ni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va uni qayta ishlash soxa yo‘nalishlari bo‘yicha tizimlashishi natijasida agroklasterlarni o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu sinergetik samaraga erishish hisoblanadi. Ayni paytda qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoatining mutanosib rivojlanishini, mahsulotlarni saqlash va ularni sotishni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantiruvchi

[6] Кундиус В. А. Формирование кластеров на селе базис инновационного развития агропромышленного производства // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2012. № 2. С. 56–60.

[7] Глотко А. Модель агропромышленного кластера региона // АПК: экономика, управление. 2013.

harakatlantiruvchi kuchga aylantiradi. Natijada nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash, balki xomashyodan oqilona foydalanish, uni chuqur qayta ishlashni ta’minlash va oziq-ovqat tovarlari turini kengaytirish uchun ham shart-sharoitlar yaratiladi. Bularning barchasi qishloq xo‘jaligi integratsiyasini samarali rivojlanishi natijasida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Глотко А. Модель агропромышленного кластера региона // АПК: экономика, управление. 2013. №.
2. Тошматов, Р. Х. Фермер хўжаликлари кооперацияси ва бозор инфратузилмалари ривожланишини бошқариш. Номзодлик диссертаияси, Ташкент.2009й
3. Кундиус В. А. Формирование кластеров на селе базис инновационного развития агропромышленного производства // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2012. № 2. С. 56–60

EFFECTIVE PERSONNEL MANAGEMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Zanabitdinov Sanjarbek Vladimirovich
Andijan Mechanical building Institute "Economics"
1st stage graduate student

Abstract: This article presents opinions on the issues of effective personnel management in industrial enterprises.
Key words: industrial enterprise, personnel, efficiency, labor productivity, scientific management.

One of the most important factors is that companies focus on their personnel in the conditions of globalization. Systematic application of personnel management functions is the way to economic stability. Because the mood of the business is proportional to the mood of the staff. Therefore, providing the right motivation to personnel is one of the most important tasks in ensuring the organizational and socio-economic stability of enterprises. Currently, in the conditions of effective economic reforms implemented in our Republic, it remains clear that the basis of the success of enterprises is to constantly increase the attention to human resources. The experience of developed countries is a clear proof of this. The process of effective management of employees in enterprises is directly related to the function of motivation. Therefore, in terms of influencing personnel, motivation and the theoretical justification of the ways of influencing personnel through it are important. Personnel management activity and motivational factors affecting it have been constantly in the focus of attention of economists.

As the world progresses, it is necessary to improve the motivational system of influencing employees. Motive is seen as a factor, an incentive to fulfill a certain goal

in human activity. Motivation (lat. movere) means to arouse. When analyzing the essence of motivation, we need to consider different theories of scientists. F.Taylor, one of the founders of the school of scientific management, a famous specialist in industry, offered scientific knowledge on scientific organization of work, motivation of personnel through material incentives, effective management of production [1].

This system was aimed at maximum utilization of personnel, which meant that weak workers were forced to quit and perform at a high level regardless of the opportunity. The disadvantages of this system are that each person's unique nature and energy capacity were not taken into account. This has led to the alienation of workers, and in many cases to damage to their health. As a result, the workers who could not meet the specified demand lost their enthusiasm for work. However, efficiency will be high if work is organized based on this system by choosing the average rate of labor.

Another theory that has a motivational impact on personnel belongs to the representatives of the school of human relations. Elton Mayo, the main representative of the school of human relations, conducts research in a textile factory in Philadelphia in 1923-1924. He concluded that the work of the spinners in the factory was not well respected and, moreover, the opportunities for communication with each other were limited due to the working conditions. This gave him the opportunity to suggest that changing working conditions rather than raising wages was the key to reducing turnover. In agreement with the administration, E. Mayo experimented with establishing 10-minute breaks for workers to rest. The result was better than expected, the morale of the workers improved, the volume of production increased, and the inefficient turnover of personnel decreased dramatically.

Later, after the enterprise inspector canceled these breaks, the situation returned to its old state. This proved that E. Mayo's experience paid off. The goal of the representatives of the school of human relations was to eliminate the alienated system of labor and introduce a system based on the principles of mutual respect, and they achieved this. The shortcoming of this school-based system was that all personnel were treated equally humanely. But since the nature of all the employees of the enterprise is different, it is necessary to apply human relations based on individual character and interests. Another representative of management theories is prof. D. McGregor also put forward a unique theory of personnel motivation [2]. According to him, leaders should use theories XII and VII to influence subordinates. According to the XII theory, although a certain person knows that work is necessary, based on his nature, he does not like it and tries to avoid it whenever possible. Such passive personnel do not want to take responsibility.

Therefore, it is emphasized that they should be strictly controlled and used strictly. According to theory VII, work is a hobby for personnel. Therefore, he continues to work with great enthusiasm even if he is not controlled. It is emphasized that the appreciation of such personnel, appropriate treatment and appropriate encouragement will further develop their activities. After the 30s of the 20th century, meaningful concepts of personal motivation began to appear.

On the basis of this theory, an attempt was made to determine the motivation that drives the personnel and to influence the personnel based on this. The most widespread concept based on the content theory is considered to belong to Abraham Maslow, according to which it is emphasized that the motivations of the personnel come from their own needs. According to this theory, all externalities can be arranged in the form of a strict hierarchical structure [3]. According to him, needs have the following order: 1. Physiological needs 2. Stability needs 3. Social needs 4. Respect and recognition needs 5. Self-expression needs. Physiological needs are of primary importance and include food, clothing, water, shelter and other essential needs.

Stability needs, i.e., the stability of the workplace where the staff is present, security needs, the necessary length of service and security against other internal and external influences. On the basis of social needs, the personnel wants to be a member of a relevant group in the enterprise, to feel the need to be accepted by others, to be loved and supported by the team and the leader. The need for respect, that is, the need that occurs in most workers, and by satisfying it, the personnel achieves self-esteem in the workplace. The need for self-expression, that is, the need for personal growth, self-improvement and work. According to D. Greenberg and R. Baron, A. Maslow's theory provides several effective ways to satisfy needs while doing work [4]. That is, the system of motivating personnel based on their existing needs.

Even now, the systematic use of Maslow's pyramid of needs in personnel motivation improves work motivation. A. Maslow's theory has been criticized a lot. But this concept is the starting point for the development of a motivational system in the management of enterprise personnel. David McClelland is another scientist who saw the motivation of personal activity based on needs. According to his scientific opinion, the staff feels the need for power, success, and belonging. Makklel and power success affiliation personal theory according to McClelland's theory. The scientist emphasizes that the desire to influence others, to have one's say, to draw others' attention to oneself, and to be eloquent comes from the desire for power. The need for achievement is the need to enjoy one's work and the pursuit of victory based on doing it with interest and interest.

Those who feel the need for success among the existing personnel in the company tend to take responsibility, take risks based on knowledge in work, and solve problems effectively. Individuals with a need for belonging tend to care about their team, are helpful, prefer friendship, and have other social traits. Of course, if the team is well formed, most of the personnel who are members of this team feel the desire to be an integral part of this team. It is effective to motivate him based on this desire. In the second half of 1950, F. Hertzberg and his colleagues created a unique model of motivation. F. Hertzberg and a group of experts conducted a survey on the employees' satisfaction with their work and when they were not satisfied with the work of the Lac-paint company. After the conducted studies were scientifically justified, F. Hertzberg divided the factors affecting personnel activity into ―Hygienic factors and ―Motivational factors.

Groups of "hygienic factors" and "motivational factors"[5] Hygienic factors Motivational factors Company and administration policies Success Working

conditions Promotion in the service ladder Salary Recognition and approval of work results Interpersonal relations with superiors, colleagues and subordinates High level of responsibility Direct work control over control. Opportunities for growth in the creative field and work field. According to F. Hertzberg, the lack of hygienic factors in the personnel gives him job dissatisfaction. Therefore, he emphasizes that motivational factors and hygienic factors should be given equal attention.

Above we talked about the most common theories of personnel motivation. In the current globalization conditions, the use of these theories by the managers of the enterprise will bring positive results to the enterprise. Because these theories are being used in practice in enterprises worldwide. In our opinion, the application of these theories, enriched with additional modern factors, will improve the system of working with personnel in the digital economy. For example, according to A. Maslow's pyramid of needs, in the enterprise, with the help of programs working with MS Access or other databases, an appropriate database is created based on the existing needs of employees, and their needs are controlled based on this.

The HR (human resource) department updates the database as a result of daily studies. Based on the weekly analysis of the database, the manager develops and implements a motivational system for effective personnel management. Currently, there are effective systems of motivational management of personnel based on world experience, but we need to develop a motivational system suitable for the conditions of Uzbekistan, having studied foreign experience. Because every nation has its own customs, nature, interests, and beliefs. Taking these factors into account, it is necessary to enrich the above theories and introduce improved systems to enterprises.

List of used literature:

1. Taylor F.U. Nauchnaya organization is working. - M.: NKPS - Transpechat, 1924; Taylor and Taylorism: technique.
2. Travin V.V., Magura M.I., Kurbatova M.B. Motivational management. - S. 4345; Classical management. Encyclopedia... - S. 473-479.
3. Maslow A. Self-actualization. // Psychology lichnosti: texty. - M.: izd-vo Moskovskogo universiteta, 1982. - S. 108-117.
4. Greenberg D., Byron D. Organizational behavior: theory and practice. - M.: Vershina, 2004. - S. 299.

ЎЗБЕКИСТОН АГРОСАНОАТ МАЖМУСИДА ЛОГИСТИКА ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.

Холматов Диёрбек Усмонович.
Андижон кишлок хужалиги ва агротехнологиялар институти “Агробизнес ва маркетинг”кафедраси ассистенти.

Дунёнинг ҳар қандай мамлакатида миллий иқтисодиётининг тараққиёт даражаси, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш масалаларининг қай тарзда ҳал этилиши, ижтимоий-иқтисодий барқарорликни мустаҳкамланишига энг аввало озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш масаласини ҳал этиш орқали

эришилади. Мамалакатда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш эса кўп жиҳатдан агаросаноат мажмуасининг, хусусан унинг етакчи тармоғи ҳисобланган қишлоқ хўжалиги соҳасининг ривожланганлик даражасига, маҳсулотларни етиштиришнин гфизик ҳажм-миқдор кўрсаткичларига, қайта ишлаш саноатининг мавжуд шароитларига, тармоқ маҳсулотларининг сифати, уларнинг сақланиши, агротехнологик жараёнларни талаб даражасида ташкил этилиши,шунингдек, аграр бозорларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларнинг узлуксизлигини ва доимийлигини таъминланганлик даражасига боғликдир.

Мамлакатимиз томонидан ўтган йиллар давомида озиқ-овқат соҳасини ривожлантириш борасида бир қатор кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилиб, аграр соҳага ички ва ташқи инвестицияларни жалб этган ҳолда,замонавий технологияларни мева-сабзавот, гўшт ва сут маҳсулотларини қайта ишлаш ва ишлаб чиқаришга жорий қилиниши, ишлаб чиқариш технологик базасининг янгиланиши эвазига ички бозорни сифатли маҳаллий озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш имконияти яратилиб, қайта ишлаш саноатида мазкур тармоқ улушининг тобора ошишига замин яратди. Маълумки, мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, шунингдек озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ўсиш суръати йилига ўртача 9-10 фоизни ташкил этмоқда. Шу билан бирга маҳсулотнинг экспорт ҳажми ҳам йилдан-йилга ортмоқда. Бу борада давлатимиз томонидан муҳим фармон ва қарорлар, давлат дастурлари қабул қилиниб, уларнинг ижроси изчил таъминланмоқда. Сўнгги 5 йилда мамлакатда озиқ-овқат соҳасини жадал ривожлантириш ва диверсификациялаш унинг хом ашё базасини кенгайтириш ва маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш имконини берди. Жумладан, мева-сабзавот ва узум маҳсулотлари ишлаб чиқариш 1,6 бараварга, гўшт маҳсулотлари–1,4 бараварга, сут маҳсулотлари – 1,4 бараварга ошди. Бугунги кунда республикада 9760 дан ортиқ озиқ-овқат корхоналари фаолият кўрсатиб келмоқда. Йилига ўртача 1,74 млн.тонна мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш имкониятига эга бўлган 270 дан ортиқ корхона фаолият юритмоқда, шунингдек, 479 минг тонна озиқ-овқат маҳсулотларини сақлаш қувватига эга совутиш камералари билан жиҳозланган 994 тазамонавий сиғимлар мавжуд[8].

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясининг 3.3-банди, яъни «Қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш”га мувофиқ, Ер ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш мақсадида қишлоқ хўжалиги экин майдонларини мақбуллаштириш кўзда тутилган.

Амалга ошрилаётган чора-тадбирлар натижасида мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти 2021 йилда 2016 йилга нисбатан 2,3бараварга, қайта ишланган мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти ҳажми эса 2 бараварга ошиши таъминланди.

Соҳада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш учун, қишлоқ-хўжалиги маҳсулотларини сақлаш, логистика ва экспорт қилиш

[8]Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари: www.stat.uz.

инфратузилмасини яратиш мақсадида тижорат банклари орқали Жаҳон банки, Осиё тараққиёт банки, Халқаро тикланиш ва тараққиёт банки ва бошқа қатор халқаро молия институтларининг 650 млн.доллар миқдоридаги имтиёзли кредитларини жалб этиш кўзда тутилган.Жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув ҳамда глобализация жараёнларини кучайиб бориши, мамлакатимизда иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари сингари қишлоқ хўжалиги соҳага замонавий инновацион техника ва технологиялар жалб этилиши натижасида қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган маҳсулотлар саноат корхоналари томонидан жаҳон бозорида рақобатбардош тайёр маҳсулот сифатида қайта ишлаб чиқарилмоқда.Шунга қарамай ҳозирда республикада қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчи ва қайта ишловчи корхоналар фаолиятини такомиллаштириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини талаб даражасида сақлаш, уларнинг етказиб бериш ва реализация қилиш, маҳсулотлар сифатини ҳамда рақобатбардошлигини ошириш,маҳсулотларни бозор сиғими мувозанатини доимийлигини таъминлаш ҳамда улар борасида ечимини кутаётган айрим муаммолар мавжуд. Улар жумласига фермер хўжаликлари, қайта ишловчи корхоналар томонидан етиштирилаётган ва қайта ишланаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини истеъмолчиларга етказиб бериш жараёнида маҳсулот сифатини бошқариш тармоқ бўйича логистик тизимининг етарли даражада ривожланиши, маҳсулотларни сақлаш ва ташиш талаблари тўғрисида маълумотлар оммага тўлиқ етказилиши даражаси ҳамда сақлаш ва ташиш талаблари белгиланган миллий стандартларнинг халқаро меъёрлар билан мувофиқлаштирилмаганлиги, жумладан, сифатини яхшилаш ва уларнинг жаҳон талаблари даражасига етказишни таъминлаш имкониятини берувчи механизм ва тузилмаларнинг талаб даражасида эмаслиги ёки мавжуд бўлганлари тўғрисидаги ахборотларнинг етишмаслиги, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва сотиш билан боғлиқ инфратузилманинг талаб даражасида эмаслиги ва бошқаларни киритиш мумкин.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2016 — 2020 йилларда мевасабзавот ва гўшт-сут маҳсулотларининг хом ашё базасини янада ривожлантириш,уларни қайта ишлашни чуқурлаштириш, озиқ-овқат товарлари ишлаб чиқариш в экспорт қилишни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори асосида:

- келажакда янги ва қайта ишланган маҳаллий мева-сабзавот маҳсулотларига бўладиган талабларни аниқлаш бўйича тизимли асосда маркетинг тадқиқотларини ўтказиш, шунингдек янги сотиш бозорларини ўзлаштиришда маҳаллий экспортёрларга кўмаклашиш;

- жойларда мева-сабзавот ва полиз маҳсулотларини тайёрлаш, сақлаш, бирламчи қайта ишлаш ва экспорт қилиш бўйича ихтисослашган комплекс савдологистика марказлари, шунингдек музлатиш қувватларини ташкил этиш ишларини мувофиқлаштириш;


- мева, сабзавот, полиз ва уларни қайта ишлаш маҳсулотларини транспортда ташиш, божхона расмийлаштируви ва уларни юклаб жўнатиш

бўйича ҳисобот тақдим қилишни ташкил этиш билан боғлиқ масалаларни тезкор кўриб чиқиш;

- экспорт қилинадиган янги ва қайта ишланган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етказиб бериш бўйича кўзда тутилган прогноз параметрларининг бажарилиши устидан мониторинг олиб боришни ташкил этиш;

- зарур ҳолларда, мазкур қарор билан тасдиқланган инвестиция лойиҳалари рўйхатига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш вазифалари белгиланди. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ташиш жараёни логистикасини ички ваташқи бозорлар кесимида ўрганиш мақсадга мувофиқ. Ички бозорда логистика тизими асосан автомобиль ҳамда темир йўл транспортидан ташкил топади. Ташқи бозорда логистика жараёнида автомобиль транспортининг махсус турларидан,шунингдек темир йўл ва ҳаво йўлларидан кенг фойдаланилади.

1-расм. Транспорт воситаларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари



Юқорида қайд этилганидек, агрологистика ўта мураккаб тизим бўлиб, қишлоқ хўжалигидаги барча ҳаракат жараёнларини ўз ичига олади. Ушбу ҳолатни инобатга олган ҳолда, ҳар бир логистика йўналиши ўзининг хусусиятига эга эканлигини, улар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик мавжудлигини инобатга олиш мақсадга мувофиқ бўлади.Қишлоқ хўжалиги тармоғидаги ҳар бир логистик тизимни фаолияти тармоқ маҳсулотлари хусусиятларидан келиб чиқади. Шундан келиб чиқиб, уларнинг иқтисодий самарадорлиги ҳар бир логистик самарадорлигининг йиғиндисидан эмас,балки уларнинг ўзаро боғлиқлик даражасини ҳам инобатга олиш лозим бўлади.

Агросаноат мажмуаси ва унинг асосий тармоғи ҳисобланувчи қишлоқ хўжалиги миллий иқтисодиётнинг устувор сектори саналалиб, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш тенденциялари бевосита таъсир кўрсатади Агросаноат мажмуаси тараққиёти қишлоқ хўжалиги секторида банд бўлган қишлоқ аҳолиси фаровонлиги даражаси; аҳолига сифатли озиқ-овқат билан таъминлаш;

иқтисодий хавфсизлик ва давлат экспорт салоҳияти, ва бошқаларга тўғридан-тўғри таъсир кўрсатади. Шунинг учун, бозор муносабатлари шароитида ва умуман ҳар қандай мамлакатга хос бўлган интеграцион жараёнларнинг ривожланиши шароитида қишлоқ хўжалиги соҳасининг рақобатбардошлигини ошириш учун барча шарт-шароитлар яратиш масаласи муҳим аҳамият касб етади. Замонавий илмий тадқиқотларда мамлакатимиз олимларнинг қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини ошириш муаммосини ҳал этиш йўналишлари ва йўлларига оид бир қатор ишланмалари келтирилган. Уларнинг салмоқли қисми қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг рақобатбардошлигини оширишга, яъни сифат ва нарх омилларидан тааллуқлидир. Бироқ моддий оқимлар (ишлаб чиқариш ва товар заҳиралари-уруғ, ўғит, озуқа, экин ва чорвачилик саноати маҳсулотлари ва бошқалар) нинг етказиб берувчилардан ўз истеъмолчиларига бўлган ҳаракатини оқилона ташкил этиш масалаларига етарли эътибор қаратилмаган. Бугунги шароитларда логистика ёндашувидан фойдаланиш долзарб аҳамият касб этади. Логистик ёндашув изчиллик тамойилига асосланган бўлиб, улар ҳаракатининг умумий харажатларини минималлаштириш мақсадида моддий ва кузатувчи оқимлар ҳаракати бўйича фаолиятни ташкил этишни таъминлайди. Логистик ёндашувдан фойдаланиш тадбиркорлик субъектларининг самарадорлигига ва демакки уларнинг рақобатбардошлигига боғлиқдир ва бевосита таъсир кўрсатади. Бундан ташқари, тадбиркорлик субъектларининг самарадорлиги: омбор логистикаси, транспорт менежменти, молиявий менежмент, маркетинг фаолияти, корхона имиджининг PR тизимлари, сотиш рентабеллиги, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг рақобатбардошлиги ва бошқалар каби омилларнинг синергетик ўзаро таъсири билан белгиланади. Шунга кўра, логистика замонавий хўжалик юритувчи субъектнинг қишлоқ жойларда рақобатбардошлигини таъминлаш жараёнининг ажралмас қисми ҳисобланади. Моддий оқимларни бошқаришдаги жаҳон тажрибасини ўрганиш логистик ёндашувни қўллашнинг пировард самараси қуйидагича кўриниш олишини белгилаб олиш имконини беради:

- ишлаб чиқариш тўғридан-тўғри бозорга йўналтирилади. Бу самарали кичик ва индивидуал ишлаб чиқаришга ўтиш имконини беради;
- таъминотчилар билан узвий ҳамкорлик йўлга қўйилади;
- асосий воситалардан фойдаланишдаги узилишларга барҳам берилади.Зарур хом ашё, материалларнинг доимий иш жойида мавжудлиги таъминланади.
- ишлаб чиқилган маҳсулот сифати ортади;
- ишлаб чиқариш цикли узлуксизлиги таъминланади ва харажатлар минималлаштирилади.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарирақобатбардошлигини ошириш учун логистик ёндашувдан фойдаланишнинг мақсадга мувофиқлигини белгиловчи асосий омиллар икки гуруҳга - ташқи ва ички гуруҳларга бўлиш мумкин. Улар орасида, бу борадаги етакчи экспертларнинг баҳолашларига кўра, қуйидаги кўрсатиганлар етакчи ўрин тутади:

1)ташқи омиллар гуруҳига кирувчи омиллар:

- мавжуд рақобатчилар агрессив сиёсати – респондентларнинг 73%и;
- бозорга янги кучли рақобатчилар келиши – респондентларнинг 30%и;
- хизмат даражаси жиҳатидан асосий мижозлар талабларининг ўзгариши – респондентларнинг 95%и;
- олдиндан белгиланган эҳтиёжларини аниқлиги билан боғлиқ етказиб берувчилар шартлари – респондентларнинг 42% ;
- таъминотчиларга қарамлик – 23% респондентлар;

2) ички омиллар гуруҳига кирувчи омиллар:

- бошқарув тизимининг ўзгариши – 50% респондентлар;
- харажатларни камайтириш бўйича заҳираларини излаш – 80% респондентлар.

Моддий ва ёндош оқимлар (молиявий, ахборот ва бошқалар) ҳаракатини ташкил этишда логистик ёндашувдан фойдаланиш қишлоқ хўжалиги корхоналаридан, биринчи навбатда, логистика мажмуаси таркибий қисмларида хўжалик юритувчи субъектларнинг эҳтиёжларини қондира оладиган самарали логистика инфратузилмасини шакллантиришни талаб этади. Бундай турдаги логистика инфратузилма логистиканинг барча субъектлари ўртасида интеграцияни таъминлаши зарур(1-расм).

Агросаноат мажмуасининг логистика инфратузилмаси бир қатор хусусиятларга эга:

- унинг маҳсулотлари моддий шаклга эга эмас(хизмат кўрсатиш), шунинг учун уларни сақлаш ва тўплаш мумкин эмас;
- логистика инфратузилмаси фаолиятининг самараси унинг чегарасидан ташқарида, яъни хизмат кўрсатадиган тармоқларда намоён бўлади;
- ривожланиш даражаси асосий ишлаб чиқариш эҳтиёжлари билан белгиланади;
- кўпгина логистика инфратузилмаси объектларининг ҳаракатчанлиги ва маневрлиги жуда паст (хусусан, омбор иншоотлари).

2-расм. Агрологистик инфратузилмадан фойдаланишнинг интеграцион жараёнлари иштирокчилари



Агрологистика инфратузилмасининг марказий элементи қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларига юқори сифатли қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш, сақлаш ва истеъмолчиларнинг эҳтиёжларига мувофиқ сотиш, якуний ва қайта ишлаш ҳамда уни хом-ашё сифатида ишлатадиган саноатнинг бошқа корхоналари учун бир қатор хизматларни таъминлаш учун шарт-шароитлар яратувчи ва таклиф этувчи агрологистика марказлари бўлиши лозим

Агрологистик марказлар моддий, ахборот ва молиявий оқимларнинг ҳаракатини бошқариш, шунингдек, логистик оқимларининг истеъмолчилар томонга ҳаракатини таъминлаш маҳсулотларни сақлаш, ташиш ва ҳужжатлаштириш амалга ошириладиган махсус объектлар, таъбир жоиз бўлса интеграция ҳужайралари деб аталади.

Агрологистика маркази (АЛМ) остида, биз қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва сотиш учун пул ва вақт харажатларни камайтиришга ёрдам беради бир қатор логистика хизматлар билан таъминлаш шунингдек, ички ва ташқи бозорларда уларнинг маҳсулот сифати ва корхона ва рақобатбардошлигини ошириш мақсадида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларига хизмат қилиш учун мўлжалланган, маълум бир ҳудудида қишлоқ жойларда жойлашган ихтисослашган корхоналарни тушунамиз.Техник жиҳатдан агрологистика маркази (АЛМ) омбор ва транспорт иншоотларига, шунингдек, офис бинолари, муҳандислик-техник коммуникациялар ва ҳ.к. бўлинган бино ва иншоотлар мажмуи ҳисобланди. Бундай АЛМ ларни йўл, темир йўл, сув ва бошқа йўналишлар, терминаллар ва бошқаларга яқин жойларга жойлаштириш мақсадга мувофиқдир.

АЛМнинг алоҳида хусусияти унинг марказ иштирокида ўз фаолиятини юритишни истаган янги қишлоқ хўжалиги обектлари учун очиқлиги ва барча мижозлар учун ишлаб чиқариш обектларининг мавжудлигидан иборат (уларнинг кўламидан қатъий назар).Жаҳон тажрибасини ҳисобга олган ҳолда агрологистик марказни шакллантириш жараёнини схематик тарзда қуйидагича ифодалаш мумкин (2-расм).

Ҳар бир иштирокчига ишнинг бориши, бажарилган вазифалар ҳажми ва ҳоказолар ҳақидаги ахборотдан эркин фойдаланишни таъминлаш орқали АЛМ яратиш жараёнининг шаффофлигини таъминлаш таклиф этилади.

Агрологистик марказнинг вазифаси қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг ички ва ташқи бозордаги самарадорлиги ва рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беришдан иборат. Юқорида кўрсатиб ўтилган вазифаларни бажариш моддий, товар ва ахборот оқимларини ўз истеъмолчиларига тақдим этиш учун сарфланадиган харажат ва вақтни минималлаштиришга қаратилган ва юқори малакали мутахассислар томонидан кўрсатиладиган логистик хизматлар орқали эришилади. Ушбу миссияни бажаришга эришиш учун қуйидаги мақсад ва вазифаларни бажариш талаб этилади:

- қишлоқ жойларда муҳандислик-техник инфратузилмани ривожлантиришга кўмаклашиш ва рағбатлантириш, комплекс логистика хизматларини самарадорлигини ошириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш;
- қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш ва маркетинг жараёнининг хусусиятларидан хабардор бўлган, логистика фаолияти соҳасида юқори малакали мутахассисларни танловини ўтказиш, танлаб олиш ва ишга қабул қилишни ташкил этиш;
- қишлоқ хўжалиги учун моддий-техника ресурсларини етказиб берувчилар билан яқин ва барқарор интеграцион алоқаларни ўрнатиш ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини харид қилишдан манфаатдор харидорларни излаб топиш;
- маҳсулот ва унинг сифат кўрсаткичларини транспортировка давомида минимал йўқотишлар билан етказиб берувчи,маҳсулотларни ташиш, сақлаш бўйича ишлаб чиқарувчиларга сифат хизмат кўрсата оладиган транспорт ва омбор муассасаларини шакллантириш;
- қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг аутсорсинг логистика хизматларининг ихтисослашган тузилмалар бўйича афзалликлари ҳақида хабардорлигини ошириш;
- қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозорининг ҳолати ва тенденциялари, талаб, таклиф, нархлар динамикаси ва бошқалар тўғрисидаги маълумотлар жамланган ахборот базасини шакллантириш. Таъминотчилар, харидорлар ва транспорт компанияларининг маълумотлар базаларини яратиш қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари учун логистика хизматларини излаш ва ташкил этиш учун сарфланадиган вақтни камайтиради.

Кейинги босқичда агрологистик марказ иштирокчилари рўйхати аниқлангандан сўнг унинг фаолият доираси, ваколатлар тақсимоти ва ташкилий бошқарув тузилмасини шакллантириш амалга оширилади. Бу агрологистика маркази ва бошқа манфаатдор томонлар, ҳам иштирокчилари учун юқори сифатли логистика хизматларини тақдим этишни, танспорт, омбор ва бошқа логистика хизматлари учун талабни кенгайтириш, потенциал мижозларни танлаб олиш, уларга кўмак бериш, юқоридан санаб ўтилган саъй-ҳаракатларини жамлаган ҳолда харажатларни камайтириш имконини беради.

Адабиётлар рўйхати

1.“Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

2. “Тадбиркорлик субъектларига давлат хизматларини кўрсатиш механизмларини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. – Халқ сўзи, 2017 йил 2 февраль.

3.“Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлаш, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 5 октябрь 2016 йил.

4.ЎзбекистонРеспубликасиПрезидентиШавкатМирзиёевнингОлийМажлисгаМурожаатномаси// Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.

АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШГА САМАРАЛИ ЁНДАШУВ

Рустамова Дилсабохон Джураевна
ТДИУ, Андижон факультети “Ижтимоий-гуманитар” фанлар кафедраси доценти

Халқимиз турмуш даражасини юксалтириш, айниқса, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш орқали оилалар фаровонлигини мустаҳкамлаш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бири саналади. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида бу борада қатъий чора-тадбирлар белгиланган бўлиб, амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар одамларнинг ўз ҳаётидан мамнун бўлиб яшашларини таъминлашга хизмат қилмоқда. Зеро, Президентимиз таъкидлаганидек, инсон қадрини улуғлаш, аҳолимиз манфаатларини таъминлаш, бунинг учун кучли иқтисодиёт барпо этиш бизнинг асосий вазифамиздир.

Шу нуқтаи назардан айтганда, бугунги кунда юртимизда кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш масаласи бўйича жадал саъй-ҳаракатлар рўёбга чиқарилмоқда.

Эсласак, авваллари, аниқроқ айтадиган бўлсак, мустақиллигимизнинг дастлабки йилларида бу турдаги бизнес ривожланиши орқали мамлакатда тараққиёт бўлишини тасаввур ҳам қилолмас эдик. Сўнгги йилларда эса кичик ва ўрта бизнесини бошлаётган юртдошларимизнинг сафи кун сайин сезиларли даражада кенгайиб бормоқда-ки, буни, шубҳасиз, тизимли ислоҳотлар натижаси, дейиш мумкин.

Рақамларга эътибор қаратадиган бўлсак, ҳозирги вақтда мамлакатимизда фаолият юритаётган 485 мингдан ортиқ тадбиркорлик субъектларидан кичик бизнес субъектлари 2024 йил январь ҳолатига кўра 417 минг 80 тани ташкил этмоқда. Барча соҳаларда тадбиркорлар сони ва фаолият доираси кенгайиб, уларнинг мамлакат иқтисодий тараққиётига қўшаётган ҳиссаси тобора ортиб бораётгани аҳамиятлидир. Энг асосийси, кўплаб юртдошларимизнинг бандлиги таъминланиб, оилаларининг иқтисодий муҳити яхшиланмоқда. Яна бир эътиборли жиҳати шундаки, табиркорлик соҳасида опа-сингилларимизнинг сафи кун сайин кенгайиб бораётгани диққатга сазовор.

Биламизки, бугун аёл нафақат меҳрибон она, балки жамиятнинг фаол иштирокчиси ва ташаббускори сифатида ҳам ўзини яққол намоён қилмоқда. Шу жиҳатдан айтганда, юртимизнинг энг чекка тумани, энг чекка маҳалласида ҳам ўз бизнесини йўлга қўйган тадбиркор хотин-қизларимизнинг борлиги қувонарли, албатта. Муҳими, уларнинг касб-ҳунарли, тадбиркор бўлишига кўмаклашиш масаласи давлатимизнинг доимий эътиборидадир.

Шу боис, сўнгги йилларда хотин-қизларнинг иқтисодий фаоллигини ошириш, касбга ўқитиш ва бандлигини таъминлаш, уларни тадбиркорликка кенг жалб этиш бўйича қулай шарт-шароитлар яратилмоқда. Очиғини айтиш керак, ушбу имкониятлардан самарали фойдаланган жуда кўплаб оғир вазиятга тушиб қолган опа-сингилларимиз, имконияти чекланган аёл-қизларимиз нафақат ўз ҳаётини ижобий томонга ўзгартирдилар, балки турмуш синовлари қуршовида қолган бир қанча аёлларни ҳам иш билан таъминлашга эришдилар. Бу борада Президентимизнинг Фармон ва қарорлари асосида ажратилган имтиёзли кредитлар, албатта, ўз натижаларини берди, десак асло янглишмаймиз.

Ўзбекистонда бугунги кунда мамлакат аҳолисининг 17 млндан зиёд қисмини хотин-қизлар ташкил этади, тадбиркорликда аёлларнинг улуши эса кичик бизнес вакиллари умумий сонининг 25 фоизига тенг.

Ўзбекистонда хотин-қизлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш учун кенг кўламли имтиёзлар тақдим этилган:

-Хотин-қизлар учун касбий таълим. 2022 йил 1 июндан бошлаб хотин-қизларни давлат ва нодавлат таълим муассасаларида давлат буюртмаси асосида касб-ҳунарга ўқитишнинг янги тартиби жорий этилди.

-Эҳтиёжманд хотин-қизлар бандлигини таъминлаётган бизнесни қўллаб-қувватлаш. Қишлоқ жойларда ушбу тоифадаги кичик тадбиркорлик субъектлари 2025 йилгача мол-мулк солиғи ва ер солиғини 50 фоизга камайтирилган ставкада, ижтимоий солиқни эса 1% ставкада тўлайдилар.

-Тадбиркор хотин-қизларга имтиёзли кредитлар ажратиш. Ўз фаолиятини бошлаган аёлларга 6 ойдан 12 ойгача муддатда 300 млн сўмгача, 2 йилгача ишлаганларга 1 млрд сўмгача, 2 йилдан зиёд ишлаганларга 3 млрд сўмгача кредитлар ажратилади.

2024 йил мамлакатимизда Президентимиз ташаббуси билан “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили” деб номланиши ҳам жамиятимизда тадбиркорликка бўлган интилишлар учун кенг имкониятларга йўл очди. Айниқса, давлатимиз раҳбарининг жорий йил 7 мартдаги “Хотин-қизларнинг тадбиркорлигини йўлга қўйиш ва ривожлантиришни қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори опа-сингилларимиз учун ўз иқтидор ва салоҳиятларини тўла-тўкис рўёбга чиқаришларини кафолатлашда муҳим ҳуқуқий асос бўлди.

Бинобарин, ушбу қарорда хотин-қизларнинг иқтисодий фаоллигини ошириш, касбга ўқитиш ва бандлигини таъминлаш, уларни тадбиркорликка жалб этиш учун Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ҳисобидан икки йиллик имтиёзли давр билан беш йил муддатга йиллик 14 фоиз ставкада жами 100 миллион АҚШ доллар эквиваленти миқдорида кредит ресурслари ажратилиши белгиланди. Бу шундан далолат берадики, эндиликда опа-сингилларимиз бирон бир касб-ҳунар эгаси бўлиб, ўз тадбиркорлигини йўлга қўйишлари мумкин. Демак, уларнинг ҳам оилада, ҳам жамиятда фаоллиги янада ошади.

Савдо-саноат палатаси, АТ “Халқ банки”, “Бизнесни ривожлантириш банки” ва “Микрокредитбанк”АТБда хотин-қизлар тадбиркорлигини қўллаб-

қувватлаш тизими яратилиши кўзда тутилгани аҳамиятли жиҳатлардан биридир. Бинобарин, ушбу тизим орқали хотин-қизларга бизнес лойиҳаларини ишлаб чиқиш, маҳаллаларда уларни тадбиркорликка ўқитиш ҳамда тадбиркорлигини бошлаган опа-сингилларимизнинг маҳсулотларини сотишга амалий ёрдам кўрсатилади. Шунингдек, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш жараёнлари кузатиб борилади ва улар билан доимий мулоқотда бўлиши таъминланади. Эътиборли томони, эндиликда юқоридаги банклар аввалгидек, фақат имтиёзли кредитни бериш ва унинг банкка қайтиши билан чекланмасдан, балки ажратилган сармоянинг натижадор бўлиши учун барча жараёнларда масъул ҳисобланади.

Қарорда, биринчи навбатда, “Аёллар дафтари”, ”Ёшлар дафтари” ва “Темир дафтар”га киритилган ишсиз хотин-қизлар эътиборга олиниши лозимлиги белгилаб қўйилди. Ушбу жараён тўлақонли ишлаши учун эса, албатта, аниқ режа ва таклифлар бўлиши мақсадга мувофиқ. Шу боис ҳужжатда ушбу масала юзасидан тегишли соҳа вакиллари, Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва вилоятлар ҳокимликларига топшириқлар белгилаб берилди. Ўз навбатида, қарор ижросини таъминлашда тегишли маъсуллар қаторида хотин-қизлар қўмиталари, фаоллар ҳам жонбозлик кўрсатишлари муҳим аҳамиятга эга. Зеро, ҳар бир амалий иш биргаликда, ҳамжиҳатликда бажарилса, кўзланган мақсадга эришиш мумкин.

Яна бир эътиборли жиҳати, айни пайтда Хотин-қизлар тадбиркорлигини ривожлантириш бўйича Сенат Раиси бошчилигида махсус комиссия тузилиб, ҳар ой якунида ушбу йўналишдаги ишларнинг натижалари бўйича муҳокамалар ўтказиб борилади.

Мухтасар айтганда, аёллар тадбиркорлиги бугунги кунда иқтисодий ўсишнинг муҳим шартларидан биридир. Хотин-қизларнинг фаол иштироки бевосита иқтисодий юксалиш ва фаровонликка хизмат қилади. Ижтимоий йўналишдаги лойиҳалар ва бизнеснинг аксарияти аёллар томонидан амалга оширилмоқда.

RAQOBATLASHGAN BOZORILARNING USTUN JIHATLARI

Qurbonov Jasurbek Pozilovich
TDIU, “Mutaxassislik fanlari” kafedrasi mudiri, i.f.f.d.
Rayxona Xasanovna Xusanova
TDIU, Andijan fakulteti talabasi

Annotatsiya: Raqobat – bu ikki kishi yoki guruhning doimiy raqobatbardosh munosabatlardagi holati. Monopolistik raqobat bozori o‘zining ba’zi bir xususiyatlari bilan mukammal raqobatlashgan bozorga o‘xshaydi. Bu yerda ham harakat qiluvchi firmalar ko‘p, yangi firmalarni bozorga kirib kelishi yoki unda harakat qiluvchi firmalarning undan chiqib ketishi cheklanmagan. Shuningdek uning afzal jihatlari va kamchiliklari borasida so‘z yurutilgan.

Abstract: Rivalry is a state of constant competitive relationship between two people or groups. A monopolistically competitive market is similar to a perfectly competitive market in some of its features. There are many companies operating here, and there is no restriction on the entry of new companies into the market or the exit of existing companies. Its advantages and disadvantages are also discussed.

Аннотация: Соперничество – это состояние постоянных конкурентных отношений между двумя людьми или группами. Рынок монополистической конкуренции по некоторым своим характеристикам аналогичен рынку совершенной конкуренции. Здесь работает множество компаний, и нет никаких ограничений на вход новых компаний на рынок или выход существующих компаний. Также обсуждаются его преимущества и недостатки.

Kalit so‘zlar: bozor, monopolistik raqobat bozori, raqobat, raqobatlashgan monopol bozor, firmalar, samaradorlik, innovatsiyalar, yuqori foyda, barqarorlik, Suiste’mol qilish potentsiali, tanlovning yetishmasligi, yuqori narxlar.

Raqobat so‘zi ilmiy yo‘nalishda raqobatlashgan bozor, o‘zaro raqobatlashuvchi firmalar kabi so‘z birikmalari ko‘rinishada ko‘p duch kelganmiz. Raqobat – bu ikki kishi yoki guruhning doimiy raqobatbardosh munosabatlardagi holati. Raqobat – bu raqobatlashayotgan ikki tomon o‘rtasidagi „bir-biriga qarshi“ munosabati.

Monopolistik raqobat bozori o‘zining ba’zi bir xususiyatlari bilan mukammal raqobatlashgan bozorga o‘xshaydi. Bu yerda ham harakat qiluvchi firmalar ko‘p, yangi firmalarni bozorga kirib kelishi yoki unda harakat qiluvchi firmalarning undan chiqib ketishi cheklanmagan. Lekin bu mukammal raqobatlashgan bozordan farq qiladi. Farq shundan iboratki, monopol raqobatlashgan bozordagi mahsulot differensiallashgan, ya’ni bir xil ehtiyojni qondiruvchi tovarni har bir firma o‘ziga xos ravishda ishlab chiqarib sotadi va uning mahsuloti boshqa firmalarning mahsulotidan sifati, bezagi, tarkibi va sotuv markasi obro‘yi bilan farq qilishi mumkin. Tovarning differensiallashuvi deganda bozorda sotiladigan tovarni standartlashtirilmaganligi tushuniladi. Har bir firma o‘zining tovar markasini ishlab chiqarish bo‘yicha monopol hisoblanadi va u bozorda ma’lum darajada monopol hokimiyatga ega bo‘ladi. Firmaning monopol hokimiyati uning mahsulotining boshqa firmalar mahsulotidan qanchalik farq qilishga bog‘liq. Masalan, tish yuvish pastalari monopol raqobat bozorida sotiladigan «Kolgeyt», «Pepsodend» va «Lesnoy balzam» pastalari bir-biridan qadoqlanishi, bezagi, davolash xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Monopol raqobat bozorga misol sifatida tish yuvish pastasi, kir yuvish paroshogi, xar-xil chanqov bosdi ichimliklari bozorlarini, kiyim-kechak bozorini keltirish mumkin. Raqobatlashgan monopol bozor quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi: Birinchidan, firmalar differensiallashgan, bir-birini o‘rnini bosish normasi yuqori bo‘lgan, mahsulotlarini sotadi va bir-biri bilan raqobatlashadi. (Boshqacha aytganda bunday tovarlarning narxga ko‘ra elastikligi yuqori, lekin cheksiz emas). Ikkinchidan, bozorga yangi firmalarni o‘z markasi bilan kirishi va undan faoliyat ko‘rsatayotgan firmalarni chiqishi cheklanmagan. Agar firmalarning mahsulotiga talab yetarli darajada bo‘lmay qolsa ular bozordan to‘siqsiz chiqishi mumkin. Raqobatlashgan monopol bozorning o‘ziga xos xususiyatini poyafzal va avtomobil bozorini taqqoslaganda ko‘rish mumkin. Poyafzal bozori raqobatlashgan

monopol bo‘lsa yengil avtomobil bozori oligopolik bozor sifatida xarakterlanadi. Agar, poyafzal bozorida foyda yuqori bo‘lsa, boshqa firmalar yangi poyafzal ishlab chiqarish o‘z markasi bilan bozorga kirish uchun kerakli bo‘lgan mablag‘ni sarflashi ular uchun katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. Avtomobil bozoridagi avtomobillar ham differensiyallashgan (ya’ni uning turlari ko‘p). Lekin, bu bozorga yangi firmalarning kirib kelishiga masshtab samarasi katta qiyinchilik tug‘diradi. Nima uchun deganda samarali miqdordagi avtomobillarni ishlab chiqarish uchun juda katta mablag‘ talab qilinadi. Uchinchidan, bozorda nisbatan katta miqdordagi firmalar faoliyat ko‘rsatadi va ularning har biri sotiladigan umumiy turdagi tovarga bo‘lgan bozor talabining ma’lum darajadagi ulushini qanoatlantiradi. To‘rtinchidan, firmalar o‘z mahsulotlariga narx belgilashda va sotish hajmini aniqlashda raqiblarining aks harakatlarini e’tiborga olmaydilar. Masalan, biror sotuvchi o‘z mahsuloti narxini 20 % ga tushursa uning mahsulot sotish hajmi oshadi va oshish alohida bir firma hisobidan emas, balki ko‘p firma hisobidan sotiladi, lekin bu siyosatning boshqa bir raqib firmaning bozordagi ulushini keskin qisqartirib yuborishi ehtimoli nihoyatda kichikdir. Shuning uchun ham raqobatchi firmalar birinchi firmaning narx siyosatiga nisbatan biror chora ko‘rmaydi va bu siyosat kuchli ta’sir qilmaydi.

Raqobatbardosh monopoliya bozorining afzalliklari:

- Samaradorlik: Monopoliya bozorlari miqyosda iqtisodga olib kelishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va iste’molchilar uchun narxlarni pasaytirishga olib keladi.
- Innovatsiyalar: Raqobatchilarsiz monopoliyalar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga ko‘proq sarmoya kiritish imkoniyatiga ega bo‘lib, texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarga olib keladi.
- Yuqori foyda: Monopoliyalar bozordagi qudrati va raqobatning yo‘qligi tufayli yuqori daromad olish imkoniyatiga ega.
Hozirgi kunda axborot xavfsizligini taminlash tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda chunki borgan sayin axborotga bo‘lgan tahdidlar ortib bormoqda. Misol uchun dunyoning yirik banklariga bo’layotgan xakerlarning hujumlari, bank mijozlarning plastik kartalaridan noqonuniy pul yechib olishlar, davlat idoralaridagi tizimlarga bo’layotgan tajovuzlarni misol qilishimiz mumkin. Bilamizki, axborot eng qimmatli narsalardan biri hisoblanadi. Axborot xavfsizligi nimaga kerak deganda axborotni boshqargan odam dunyoni boshqaradi bu yaqqol ko’rinib turibdi. Chunki, bir yolg’on axborot bilan butun bir jamiyatning hayotini yaxshilash yoki barbod qilib yuborish mumkin. Hamda hozirgi kunda asosan qurolli urushlar emas, balki axborot urushi avj olgan davrda yashamoqdamiz. Bundan tashqari eng kuchli qurol bu ma’naviy qurol hisoblanadi. Bu quroldan foydalanish uchun esa axborot katta ro’l o’ynaydi.

Davlat, harbiylar, korporatsiyalar, moliya institutlari, tibbiyot muassasalari va xususiy korxonalar o‘z xodimlari, mijozlari, mahsulotlari, tadqiqotlari va moliyaviy natijalari haqida doimiy ravishda katta miqdordagi maxfiy ma’lumotlarni to‘playdi.

Agar bunday ma’lumotlar raqobatchilar yoki kiberjinoyatchilar qo‘liga tushib qolsa, bu tashkilot va uning mijozlari uchun keng qamrovli huquqiy oqibatlarga, tuzatib bo‘lmas moliyaviy va ayanchli yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Bugungi dunyoda internetdan foydalanishining kengayishi bilan birga kiber-hujumlar ham o'sib bormoqda. Shu sababli axborot xavfsizligini ta’minlash birinchi navbatdagi vazifadir. Axborot xavfsizligini taminlash quyidagi foydalarni ta'minlaydi:

1.Muhim ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash: bu bilan, shaxsiy ma'lumotlar, korxona, davlat ma’lumotlari hamda va boshqa maxfiy axborotlarni hakkerlar hujumlaridan va xavfsizlik muammolaridan himoya qilish mumkin.

2. Xavfsizlikni ta'minlash orqali mijozlar va boshqalarning ishonchi: Foydalanuvchilar va kompaniyalar xavfsizlikni ta'minlash orqali o'zlarini himoya qilish, shuningdek, ma'lumotlarni to'g'ri xisoblash bilan birga, xavfsizlik muammolari, hujumlar va tahdidlarga bo’lgan xujumlar qarshisida ishonchga sazovor bo’ladi.

3. To'g'ri hisoblanadiganlik: Xavfsizlikni ta'minlash orqali, ma'lumotlar noto'g'ri ko'rsatilish, ochilish yoki o'zgartirishiga hamda buzib kirishga qarshi himoya yahshilanadi, bu esa axborotlarni to'g'ri va xavfsiz foydalanishga olib keladi.

Axborot xavfsizligi har qanday davlatda, jumladan, O‘zbekistonda ham muhim jihat hisoblanadi. Bizning hukumat axborotni himoya qilish muhimligini tushungan holda kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish choralarini ko'rib kelmoqda.

O‘zbekiston Mudofaa vazirligi huzuridagi Axborot xavfsizligi agentligi mamlakatimizda axborot tizimlari va tarmoqlari xavfsizligini ta’minlash uchun mas’ul hisoblanadi. U kiber tahdidlarning oldini olish, hodisalarni aniqlash va ularga javob berish, shuningdek, tashkilotlar va shaxslarga axborot xavfsizligi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riq va yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun shaxslar va tashkilotlar amalga oshirishi mumkin bo'lgan bir qancha muhim qadamlar mavjud. Ushbu choralar maxfiy ma'lumotlar, tizimlar va tarmoqlarni ruxsatsiz kirish, kiber tahdidlar va ma'lumotlar buzilishidan himoya qilishga yordam beradi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarga e’tibor berilishi lozim:

Kuchli va murakkab parollarni qo'llash: buning uchun raqam va harf birikmalari aralashgan parollardan foydalanish. Shuningdek parollarni tugilgan sanalar va ism shariflarga o’xshash bo’lmayotganligiga e’tibor berish kerak. Bundan tashqari parollarning ketma-ket va bir xil bo’lishidan saqlanish samarali.

Foydalanadigan har bir hisob yoki xizmat uchun noyob parollardan foydalaning. Bir nechta platformalarda bir xil paroldan foydalanishdan saqlaning. Shungingdek bitta platformadan hamda faqat bitta akauntdan foydalaning. Agar har hil platformalarda masalan: kompyuter, telefon, planshet va boshqalardan foydalamsangiz ularning har biriga o’zgacha parol qo’ying. Bir xillikdan saqlaning.

Parollaringizni muntazam ravishda o'zgartiring, har haftada bir necha bor o’zgartirishlarni amalga oshiring ayniqsa hukumatga tegishli, shaxsiy hisob raqamingiz, bank yoki elektron pochta kabi nozik hisoblar uchun bu ishlarni

muntazam amalga oshiring. Parollaringizni har doim yangilash uchun eslatmalarni o'rnating.

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun dasturiy ta'minotni yangilab turish juda muhimdir. Sizning dasturiy ta'minotingiz yangilanishini ta'minlash uchun quyidagi qadamlar mavjud:

Yangilashdan oldin zaxira nusxasini yarating. Katta dasturiy ta'minot yangilanishlarini amalga oshirishdan oldin, yangilash jarayonida muammolar yuzaga kelganda ma'lumotlar yo'qolishining oldini olish uchun muhim ma'lumotlaringizni zaxiralang. Ularni isonchli joylarga bir nechta nusxalarini saqlabn qoying. Buning uchun fleshka, chip, kampyuter va boshqa gadjetlardan foydalaning.

So'nggi xavfsizlik tahdidlari va dasturiy ta'minot zaifliklari haqida xabardor bo'ling. Xavfsizlik axborotnomalariga obuna bo'ling, xavfsizlik bloglarini kuzatib boring va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilarining xavfsizlik ogohlantirishlariga e'tibor bering. Har doim axborot xavfsizligiga qarshi chiqarilayotgan xujumlarni kuzatib boring.

Xodimlarni kiberxavfsizlik bo'yicha ilg'or tajribalarga o'rgatish tashkilotning umumiy xavfsizlik holatini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Xodimlarni kuchli parollar muhimligi, parolni muntazam ravishda o'zgartirish va parol menejerlaridan foydalanish haqida o'rgating. Bunda o’zingiz ham faol bong va birgalikda o’rganing. Iloji boricha ko'p faktorli autentifikatsiyadan (MFA) foydalanishni rag'batlantiring.

Xodimlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha treningga sarmoya kiritib, tashkilotlar xavfsizlik bo'yicha xabardorlik madaniyatini shakllantirishi, muvaffaqiyatli kiberhujumlar ehtimolini kamaytirishi va nozik ma'lumotlar va kompaniya aktivlarini samarali himoya qilishga qodir mustahkam ishchi kuchini yaratishi mumkin. Kiberxavfsizlikdan xabardorlik va treninglar bugungi raqamli landshaftda mustahkam kiberxavfsizlik strategiyasining asosiy komponentlari hisoblanadi.

Axborotga kirishni cheklang. Axborotga kirishni cheklash maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish va ruxsatsiz kirishning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Muntazam ravishda xavfsizlikni baholashni amalga oshirish va ushbu bosqichlarni bajarish orqali siz xavfsizlik xatarlarini faol ravishda aniqlashingiz va bartaraf etishingiz, tashkilotingizning kibertahdidlarga chidamliligini oshirishingiz va tizimlaringiz va ma’lumotlaringizni potentsial buzilishlardan himoya qilish uchun mustahkam xavfsizlik holatini saqlab qolishingiz mumkin.

Xulosa: Hozirgi kunda va bundan buyon axborot xavfsizligi dolzarb mavzu bo’lib qolaveradi chunki yildan yilga axborotga bo’lgan extiyojimiz ortib bormoqda va dunyo axborot asrida yahsamoqda. O’zimiz va jamiyat uchun ham bu mavzuga befarq qaramasligimiz talab etiladi. Xulosa o’rnida axborot xavfsizligini taminlash uchun yuqorida sanab o’tilgan ishlardan tashqari yana har birimizdan o’zimiz va jamiyatning rivoji uchun bunga befarq bo’lmasligimiz talab etiladi.

RAQAMLI IQTISODIYOT VAZIFASI VA UNI OMMAGA TARG’IB ETISHNING AYRIM MUAMMOLARI

Husanov Alibek Omonovich
TDIU Andijon fakulteti
ATT yo’nalishi talabasi.
Ilmiy rahbar: PhD ***J.Qurbonov***

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning jamiyatdagi ahamiyati va tutgan o’rni ochib berilgan. Maqolada korxonalar, odamlar, qurilmalar, ma’lumotlar va jarayonlar o‘rtasidagi milliardlab kundalik onlayn ulanishlar natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy faoliyat turlari tahlil qilingan. U elektron tijorat, onlayn reklama, raqamli kontent, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, narsalar interneti va katta ma'lumotlar tahlili kabi bir-biriga bog'langan raqamli texnologiyalarning keng spektrini o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyotda shaffoflikni ta’millash biznes yuritish, muloqot qilish va bir-birimiz bilan o‘zaro munosabatimizni o‘zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot innovatsiyalar va raqobatbardoshlikning asosiy omiliga aylandi hamda butun dunyo bo‘ylab biznes va jismoniy shaxslar uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Kalit so’zlar: Raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, shaffoflik, ijtimoiy paketlar, iqtisodi vazifalar.

Raqamli iqtisodiyot deganda raqamli texnologiyalar, jumladan, internet, mobil qurilmalar va boshqa raqamli vositalar va platformalarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. U elektron ma'lumotlar va aloqa tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyot onlayn chakana savdo, elektron tijorat, masofadan ishlash, raqamli marketing, virtual uchrashuvlar, onlayn ta'lim va raqamli o'yin-kulgi kabi keng ko'lamli faoliyatni o'z ichiga oladi. Uning o'sishiga texnologiyaning rivojlanishi va raqamli qurilmalar va platformalarning keng qo'llanilishi sabab bo'ldi. Raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy o‘sishga muhim hissa qo‘shmoqda va ko‘plab sohalarni o‘zgartirib, innovatsiyalar va o‘sish uchun yangi biznes modellari hamda imkoniyatlar yaratdi va bundan keng foydalaniladi.

Raqamli iqtisodiyotni ommaga targib qilishda ijtimoiy media kampaniyalari, jamoat tadbirlari va ta'lim dasturlari kabi xabardorlikni tarqatish va raqamli texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirishning ko'plab usullari mavjud. Ba'zi g'oyalar orasida foydalanuvchilarga qulay ilovalar va veb-saytlar yaratish, raqamli xizmatlarni taklif qilish uchun mahalliy korxonalar bilan hamkorlik qilish va raqamli savodxonlik va tadbirkorlik bo'yicha seminarlar o'tkazish kiradi. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari va qulayligini ta’kidlab, biz ko‘proq odamlarga bugungi dunyoda aloqador bo‘lish, xabardor bo‘lish va vakolatlarga ega bo‘lishga yordam bera olamiz.

Raqamli iqtisodiyotning qulayliklari raqamli iqtisodiyot mahsulot va xizmatlarga oson kirish, tezroq ishlov berish vaqtlari, yaxshilangan qulaylik, xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, mahsuldorlikni oshirish va katta innovatsiyalar kabi ko'plab qulayliklarga ega. Bundan tashqari, u tadbirkorlikni

demokratlashtirdi, iste'molchilarga ko'proq ma'lumot va tanlovlar berish imkoniyatini berdi, masofaviy ishlash va xizmatlarga masofadan kirishni osonlashtirdi va butun dunyo bo'ylab yaxshiroq aloqa va hamkorlikni ta'minladi. Bu raqamli iqtisodiyotni zamonaviy hayotning muhim qismiga aylantirib, jismoniy shaxslar, biznes va umuman jamiyat uchun ko‘plab qulayliklar va imtiyozlar beradi. Raqamli iqtisodiyotning o'sishi texnologiyaning rivojlanishi va internet va mobil qurilmalar kabi raqamli qurilmalar va platformalarning keng qo'llanilishi bilan ta'minlandi. Raqamli iqtisodiyot mahsulot va xizmatlarga qulay foydalanish, tezroq ishlov berish vaqtlari, xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, mahsuldorlikni oshirish va katta innovatsiyalarni o'z ichiga olgan ko'plab qulaylik va imtiyozlarni taqdim etdi. Bu tadbirkorlikni demokratlashtirdi va iste'molchilarga ko'proq ma'lumot va tanlash imkoniyatini berdi. Raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy o'sishga muhim hissa qo'shmoqda va ko'plab tarmoqlarni o'zgartirib, innovatsiyalar va o'sish uchun yangi biznes modellari va imkoniyatlarini yaratdi. Texnologiya taraqqiyoti va raqamli iqtisodiyot o‘sishda davom etar ekan, u biznes va jismoniy shaxslar uchun yangi muammolar va imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 22 sentyabr` kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.Butun dunyoda raqamli texnologiyalar barcha soha va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Bu yo'nalishga o'z vaqtida kirishgan davlatlar rivojlanib, aksincha, eskicha ishlaganlar taraqqiyotdan orqada qolyapti.2020 yil mamlakatimizda “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e'lon qilinib, bu borada katta ishlar boshlandi. Xususan, 28 aprelda davlatimiz rahbarining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.Videoselektor yig'ilishida shu borada amalga oshirilayotgan ishlar, joriy yil yakuni va 2021 yil birinchi choragiga mo'ljallangan loyihalar muhokama etildi.

Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo'lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o'ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o'rganishi kerak, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoev.

Xulosa qilib aytganda, ayrim qiyinchiliklarga qaramay raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalar va ular bilan bog‘liq tarmoqlar, ilovalar va xizmatlar tomonidan yaratilgan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. U onlayn xaridlar va elektron tijoratdan tortib, raqamli to'lovlar, oqim xizmatlari va bulutli hisoblashgacha bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyot tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarning asosiy omili sifatida ko'rilmoqda. Bu korxonalarga mahsulotlar xizmatlarni sotish va samaradorlikni oshirish uchun yangi imkoniyatlarni taklif etadi, shu bilan birga iste'molchilarga ko'proq tanlov va qulayliklarni taqdim etadi. Biroq, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq muammolar ham mavjud, masalan, kiberxavfsizlik xavfi, raqamli ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj, maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolar. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot bizning yashash va ishlash tarzimizni o‘zgartirmoqda va uniing imkoniyatlari va muammolariga moslashishda insonlar roli katta bo’lmoqda.

Foydalanililgan adabiyotlar

1.Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” nomli kitobi.

2.Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan "Raqamli iqtisodiyot istiqbollari" hisoboti.

3.Jahon bankining "Raqamli iqtisodiyot va transchegaraviy savdo: muammolar va imkoniyatlar" hisoboti.

4.Lina Dencik va Arne Xintz tomonidan "Raqamli ijtimoiy farovonlik: nazariyalar, siyosat va amaliyot

5."Raqamli ijtimoiy fuqarolik: tadqiqot" muallifi Juli E. Kuper.

6.Investopedia tomonidan "Raqamli iqtisodiyot" maqolasi: https://www.investopedia.com/terms/d/digital-economy.asp

AHOLINING OMONATLARINI KAFOLATLASH FONDI VA UNI FAOLIYATI

Umarova Nilufar Sherzod qizi
TDIU Andijon fakulteti
“Bank ishi va audit” ta’lim yo‘nalishi, 2-kurs talabasi
Qurbonov Jasurbek Pozilovich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxasislik fanlari” kafedrasi mudiri, PhD

Annotatsiya*:Ushbu maqolada omonatlar nima? Depozitlar nima? Kabi savollarga javob topilgan va omonatlarni kafolatlash fondi, fondning faoliyati, mablag’larni moliyaviy operatsiyalarda ishlatishi haqida ma’lumot berib o’tilgan.*

Kali so’zlar: *omonat, deposit, moliyaviy sektor, risk, banknot, resurs, xo’jalik subyekt, omonatchi, mayda omonat, pul-kredit, kafolatlash tizimi.*

Banklardagi omonatlarni kafolatlash haqida so’z yuritishdan oldin omonat(depozit) nima ekanligi haqida biroz to’xtalsak… Omonat-mijozning mablag‘larini kirim qilish miqdori, ularni saqlash muddati va maqsadi omonatning turi shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. **Depozit** (lot. depositum -omonat, asrab qo‘yilgan)-

1) bankka qo‘yilgan omonatlar. Bunday Depozitlarning muddatli (muayyan muddatdan so‘ng qaytarib beriladigan) va talab qilib olinadigan (omonat egasining birinchi talabi bilan beriladigan) turlari bor. Kredit muassasasi omonatchiga Depozitni olish huquqini beruvchi hamda mazkur pul mablag‘ining bankka deponent qilinganini tasdiqlovchi yozma guvohnoma - Depozit sertifikati beradi;

2) bank daftaridagi mijozlarning bankka bo‘lgan muayyan talablarini ifodalovchi yoki tasdiklovchi yozuvlar;

3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog‘ozlar (aksiya va obligatsiyalar) va pul vositalari;

4) turli muassasalarga talab qilinadigan to‘lovlarni ta’minlash uchun oldindan o‘tkaziladigan badallar.

Banklardagi omonatlarni kafolatlash har bir mamlakatning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o’ziga xos ko’rinishda tashkil etiladi. Respublikamizda ham iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida omonatlarni himoyalash tizimiga alohida e’tibror qaratilmoqda. Moliyaviy sektor rolining oshishi, aholining bankdagi omonatlari soni va summasining o’sishi, moliyaviy bozorda bank operatsiyalarining ko’payishi, milliy valyuta barqarorligining ta’minlanishi moliyaviy tizimni mustahkamlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shu maqsadda, Respublika Oliy Majlisining 2002-yil aprel oyidagi 8-sessiyasida “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi va fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi hamda respublikamizda aholining banklardagi omonatlarini kafolatlash tizimi yuzaga keldi. Bu tadbirlar aholining huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi ilg’or bank faoliyatida risk bo’lishi va mablag’ida yo’qotish ehtimoli borligidan dalolat beradi. Pul mablag‘larni omonatga qo‘yish bo‘yicha banklar takliflarini ko‘rib chiqayotganda, har kimda “mening pul mablag‘larim qanchalik himoyalanadi?”, “bank bankrot bo‘lgan taqdirda omonatni qaytarish muddati qanday?” kabi savollar paydo bo‘ladi.Shuni bilish kerakki, davlat tomonidan omonatlarni kafolatlash tizimi yaratilgan bo‘lib, ushbu tizim muayyan vaziyatlar ro‘y berganda fuqarolarga pul mablag‘larni qaytarib berishni ta'minlaydi.Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda aholi omonatlari alohida o’rin egallaydi.

Tijorat banklari boshqa xo’jalik sub’yektlaridan farqli ravishda pul bilan, asosan, chetdan jalb qilingan mablag’lar bilan ish olib boradi. Chetdan jalb qilingan mablag’lar tarkibida fuqorolar mablag’lari ham salmoqli o’rin egallaydi. Agar banklarda aholi omonatlari uchun etarli kafolat bo’lmasa, inqiroz sharoitida bank omonatlari katta zarar ko’rishlari mumkin. Barqaror bo’lmagan iqtisodiyot, ishlab chiqarish sust rivojlangan sharoitda aholining o’z mablag’larini bankka ishonmasligi iqtisodiyotda pul aylanishini sustlashtiradi. Natijada aholining bankka bo’lgan ishonchi yo’qoladi. Shuning uchun aholining banklardagi omonatlarini kafolatlash mamlakatda pul-kredit siyosatini oqilona olib borish, aholining banklarda bo’lgan ishonchini oshirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Banklarning bosh funktsiyalaridan biri, aholini qo’lidagi bo’sh pul mablag’larni o’ziga jalb qilib, bu yo’l bilan muomaladagi naqd pul aylanishini tezlashtirishga yordam berishdir. Shuning uchun ham banklarga omonatchilarning ishonchi zarur. Bunga barcha sektor o’z vaqtida moliyalashtirilishi, tadbirkorlik va ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish pirovard natijada ish haqining o’z vaqtida berilishini ta’minlash orqali erishish mumkin. Omonatchilarni bank tizimiga nisbatan ishonchini oshiruvchi tadbirlardan yana biri omonatlarni kafolatlash tizimini yaratishdir. Bank omonatlarini kafolatlashining asosiy maqsadi - bank innqirozga yuz tutgan vaqtda mayda omonatchilar manfaatini himoyalash hisoblanadi. Bu tizim amal qilganda, bank tizimi inqirozga uchraganda aholi o’rtasida omonatlarni yoppasiga olib ketish va xalqda vahima paydo bo’lish hollariga barham beriladi.

Iqtisodiyotda omonatlarni kafolatlash tizimlari zarur bo’lib, ular quyidagilarni ta’minlaydilar:

1. Mayda omonatchilarning manfaatlarini himoyalash.
2. Moliyaviy tashkilotlar faoliyat ko’rsatishiga aniq qoidalar kiritish va ularning ish faoliyatini to’xtatishda aniq qoidalardan foydalanishni ta’minlash.
3. Normal bank faoliyatini barqarorlashtirib, moliyaviy tizimga ko’maklashuvchi mexanizmini yaratishini ta’minlash.

Dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, bozor iqtisodiyotiga o’tuvchi mamlakatlarda ham omonatlarni himoyalash tizimi qonuniy asosda mayda omonatlarni himoyalashga qaratilgan. Bunda kafolatlanuvchi (sug’urtalanuvchi) omonatning maksimal miqdori Qonun bilan belgilanadi. Albatta, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga qarab, «mayda omonat» tushunchasi hamma mamlakatlarda har xil qabul qilinadi. Mayda omonatchilarning manfaati ustuvorligining bir necha sabablari bor:

milliy jamg’armalarning katta qismi aynan mayda omonatlarga to’g’ri keladi. Buni O’zbekiston banklari misolida ham ko’rishimiz mumkin:

1-jadval

Tijorat banklarida aholi omonatlarining miqdoriy strukturasi

250 ming so’mgacha omonatlar		**250 ming o’mdan 600 ming so’mgacha**		**600 ming so’mdan yuqori**	
Omonatchi soni	summa ming so’m	Omonatchi soni	summa ming so’m	Omonatchi soni	Summa ming so’ m
790692	13968	13907	5939	57427	59819

Jadvaldan ko’rib turganimizdek, omonatchilarning asosiy qismi mayda omonatchilar hisoblanadi. 790 mingdan ortiq omonatchining tijorat banklariga qo’ygan omonatlarining summasi 250 ming so’mgacha bo’lib, qolgan barcha omonatchilarning soni 70 mingdan ortiq bo’lib, ularning omonatga qo’ygan pul mablag’lari 250 ming so’mdan ortiqni tashkil etadi.

2-jadval

Tijorat banklarida aholi omonatlarining miqdoriy strukturasi

250 ming so’mgacha omonatlar		**250 ming so’mdan 600ming so’mgacha**		**600 ming so’mdan yuqori**		**Jami omonatlar bo’yicha**	
Omonat-chi soni	Ulushi %	Omonat-chi soni	Ulushi %	Omonat chi soni	Ulushi %	Omonatchi-lar soni	Ulushi %
790692	91,8	13907	1,6	57427	6,6	861166	100,0

Respublikamizdagi barcha tijorat banklaridagi aholi omonatchilarining 790692 tasi 250 ming so’mgacha bo’lgan omonatlar bo’lib, ular 13968 ming so’mni tashkil etadi. Omonatchilarning 13907 tasi 250 ming so’mdan 600 ming so’mgacha pul qo’ygan omonatchilardir va nihoyat 600 ming so’mdan yuqori omonatlar 57427ta

omonatchi tomonidan qo’yilgan, ya’ni, agar «omonatchilar soni» ko’rsatkichini birlamchi qilib, uni tahlil qilsak jadvaldagi ulushlar asosida omonatlarning quyidagi sifat ko’rsatkichlariga ega bo’lamiz: Yuqoridagi jadvaldan shuni ko’rish mumkinki, 250 ming so’mgacha bo’lgan omonatlar jami omonatchilarning soni ulushi jami omonatchilar ichida 91,8%i bo’lib yuqori ko’rsatkichga ega. 250 mingdan yuqori bo’lgan omonatlar 8,2%ni tashkil etadi. Demak, aynan, shu mayda omonatlar kafolatlanishga muhtojdir. Bundan omonatlar kafolatlanishining 2-sababi kelib chiqadi, ya’ni: aynan mayda omonatchilar sonining ko’pligi bank inqirozlari davrida boshqarib bo’lmaydigan noroziliklar, janjallar ko’tarilishiga olib keladi. Uchinchi sabab esa, omonatchilarni himoyalash, odatda, ko’p moliyaviy resurslar talab qiladi, asosan byudjet mablag’lari xarajatlarini, bu esa davlatni kafolatlanuvchi omonatlarning miqdorini chegaralashga majbur etadi. Shu bilan birga, kafolatlash tizimi qandaydir ma’noda moliyaviy vositachilikka va davlat byudjetini moliyalashtirishga asos yaratishda yordam beradi. Banklarning bankrotga uchraganligi sababli jamiyat yo’qotishlari hajmi juda katta va u nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy asoratlar qoldiradi. Jahon tajribasiga murojaat qilinsa, bank tizimiga ishonchni oshirish muammosini hal qilish yo’llaridan biri omonatlarni kafolatlash tizimini o’sha mamlakatning iqtisodiyotiga mos darajada shakllantirishdir. Bu erda omonatlarni kafolatlash tizimining birinchi sharti omonatlarni kafolatlash tizimining huquqiy bazasini yaratish, ya’ni aholini banklarga nisbatan ishonchini mustahkamlovchi Qonunlar qabul qilish va me’yoriy hujjatlar ishlab chiqishdir. Omonatlarni kafolatlash tizimini yaratishda amal qilinishi kerak bo’lgan ikkinchi shart bu banklarga nisbatan nazoratni kuchaytirish, banklar faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi g’oyatda riskli operatsiyalarni bajarishiga yo’l qo’ymaslik hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda omonatlarni kafolatlash tizimi endigina shakllanmoqda. Lekin ko’p mamlakatlarda bank omonatlarini himoyalash tizimi mavjud va u bank tizimining ajralmas qismi xisoblanadi. Har bir davlatda bunday tizimning shakllanish va rivojlanishi o’ziga xos xususiyatga ega.

Xulosa. Aholining omonatlarini kafolatlash fondi, aholi tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy omonatlarni muhofaza qilish uchun yaratilgan institutlar, mamlakatlar o’rtasida kelishilgan shartlar asosida harakat topadi. Bu tashkilotlar, omonatlarni kafolatlash, kafolat turlari va omonatlarni qabul qilishni amalga oshirish bilan shug’ullanadi. Ular aholining moliyaviy mablag’larini omonatlar orqali investitsiya qilib, moliyaning omonatlarga kafolatlash orqali omonatlarni qayta ishlash va moliyaning ijro etilishi, qarzni ajratish, dastlabki omil qilingan mablag’lar oqrali pul-kredit, moliya tizimida barqarorlikni ta’minlash hisoblanadi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. «Fuqarolarni banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to’g’risidagi» O’zbekiston Respublikasi Qonuni, 2002 yil 5 aprel.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh kilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoni, 2005 yil 15 aprel.
3. https://stat.uz/uz/
4. https://uz.wikipedia.org/
5. https://finlit.uz/oz/

V SHO‘BA - HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARIGA KIRITILGAN LOYIHALARNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘NALISHLARI

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION LOYIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti
nomonjonovanargiza7@gmail.com.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda, har qanday kichik korxonaning yoki firmaning barqaror rivojlanishi hamda yuqori iqtisodiy foydaga erishayotganligi uning investitsiya samaradorligi bilan bog‘liq ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Kichik biznes va xususiy tadbipkoplik sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalap hajmining optishi, o‘z navbatida sohada ishlab chiqapish hajmining optishiga va aholi bandligini ta’minlashga, uning bapqapop rivojlanishi hamda tapkibiy o‘zgapishlapning jadallashuviga sabab bo‘ladi. Buning provard natijasi mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz” deya ta’kidlagan [1].

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda iqtisodiyotda investitsiyalarning o‘rni, ulardan foydalanish, samaradorligini oshirish, unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish, taxlil qilish va ko‘rsatkichlarini baholash yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyatlidir. Kichik biznes va xususiy tadbipkoplikda ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy tarafdan talqin qilish muhim hisoblanadi. Chunki, har qanday iqtisodiy jarayonning provard natijasi, ijtioiy samaradorlikka erishish bilan bog‘liqdir. Ya’ni, har qanday iqtisodiy samaradorlik negizida ijtimoiy naflik bo‘lishi zarur. Shu bois ilmiy tadqiqotlarda bu masalaga alohida e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda kichik biznes sohasida ham investitsiyaga bo‘lgan talab, investitsiyaga yunaltiriladigan mablag‘larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqazo etadi. Chunki qo‘yilgan kapital mablag‘idan samarali foydalanish natijasida ko‘proq foyda olish imoniyatidan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda barqarorligi ta’minlashda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, investitsion loyihalarni boshqarish va baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent hisoblanadi. Milliy

iqtisodiyotning investitsiya faoliyatini rivojlantirish va ularni moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlar moliyalashtirish tajribalarini o‘rganish takomillashtirib borish va ular amaliyotidagi ijobiy yutuqlardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning o‘zlashtirilishini samaradorligini oshirishda investitsion muhit bilan bog‘liq moliyaviy masalalarni va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi muammolar tizimli tartibda hal etib borilmoqda. Investitsion faoliyat strategiyasining uzoq davr uchun amal qilishi, investitsion resurslarning umumiyligi, tarmoq va korxona doirasida investitsiyalarni joylashtirishning davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalaniladigan ta’sir yetuvchi usullar, vositalar va ta’sir kuchlariga qarab o‘zgarib boradi. U jarayonning tarkibiy yo‘nalishi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi [2]:

- investitsion faoliyat strategiyasining taktik va strategik boshqaruv mezonlariga muvofiqligi;
- investitsion faoliyat boshqaruv omillarining maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq;
- menejment resurslari, tanlangan boshqaruv uslubi qo‘llanilgan va maqsadga yerishilgan holda foydalaniladigan moddiy, texnik, moliyaviy, ijtimoiy, institutsional va boshqa manbalar.

Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishida va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda puxta o‘ylangan investitsiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyatning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalar, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rahbatlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni ta’minlaydi. Shu o‘rinda investitsiya oqimlarini muntazam oshirib borishga qaratilgan investitsiya siyosatini yuritilayotganligini ushbu ko‘rsatkichlarda ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda 2017-2023 yillarda iqtisodiyotga o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2,6 marotabaga oshdi. Bunda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida iqtisodiyotga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi mos ravishda 5,5 va 5,2 marotabaga oshib, respublika darajasidan salmoqli darajada yuqori bo‘ldi. Shuningdek, investitsiyalar hajmi aytilgan davrda Surxondaryo viloyatida 3,8 barobar, Toshkent viloyatida 3,6 barobar, Samarqand viloyatida 3,5 barobar, Xorazm viloyatida 3,3 barobar oshdi. Bu esa mazkur hududlarda investitsyaviy faollik yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Toshkent shahri (investitsiya jami o‘sishi 2,7 barobar), Andijon viloyati (2,7 barobar), Navoiy viloyati (2,8 barobar) iqtisodiyotlarida esa investitsiyalarning jami o‘sishi respublika darajasida bo‘lgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida yirik investitsiya loyihalari tugashi davriga to‘g‘ri kelgani munosabati bilan ivnsetitsiyalar o‘sishi sur’ati sekinlashgan. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,6 trln. so‘mni (dollar ekvivalentida 132,4 mln. AQSH dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi 2022 yilga nisbatan 0,5 % punktga kamayib, 0,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg‘arma hisobidan moliyalashtirilgan

investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 58,0 % ni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 88,6 % ni yoki 20,4 trln, so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 2022 yilga nisbatan 52,9 % ni, 1,7 trln. so‘mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mosravishda 0,6 % punktga kamayib, 0,5 % ni tashkil etdi[3].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mukinki, mintaqalarda iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda bir qator omillarni hisobga olish zarur. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning rolini oshiruvchi va o‘sishning aksariyat an’anaviy omillari ta’sirini kamaytiruvchi texnologik o‘zgarishlarning yangi to‘lqini kutilmoqda. So‘nggi avlod texnologiyalarini rivojlantirishda orqada qolish mintaqalar iqtisodiy raqobatdoshligini pasaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish hamda quyidagi vazifalarning amalga oshirish lozim:

- investorlarning qo‘yilmalarini davlat tomonidan ximoyalashni takomillashtirish hamda sug‘urtalash, hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga yo‘naltirilgan dasturiy platformalarni ishlab chiqish;
- xududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o‘zlashtirishda soliq imtiyozlarini taomillashtirish, xududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o‘sishida keng imtiyozlar berish bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sanoat tarmoqlarining ichki tarkibini qaytako‘rib chiqish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda innovatsion texnologiyalarini joriy etish va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.

2. J.Jamolov “O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo‘llari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 1/2022 yil,yanvar-fevral.

3. B.Valiyev “O‘zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda investitsiya salohiyatini oshirish” Iqtisodiyot taraqqiyot va tahlil jurnali. Mart, 2024 yil.

TIJORAT BANKLAR FAOLIYAT YO'NALISHINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Urinov Lazizbek Abdugaffarovich.
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Hozirgi zamon raqobat raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy bank mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish zarurligini taqazo qilmoqda. Ichki bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish uchun bank faoliyatining yangi turlarini o'zlashtirish, mavjud bank operatsiyalari doirasini kengaytirish zarur. Chet el tajribasidan ko'rinib turibdiki, banklarning tuzilishiga zamonaviy texnologiyalar kiritilishi bunga ko'maklashadi. Natijada, bu operatsiyalar samaradorligining oshishiga va foydaning oshishiga olib keladi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy bank mahsulotlari; innovatsion texnologiyalar; bank biznesining mijozlar diqqat-e'tibori; nobank.*

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida bank biznesini rivojlantirish istiqbollarini aniqlashdan iborat. Ilmiy ishning maqsadlari:

1. banklarida innovatsiyalar joriy etilishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash;
2. yangiliklardan qaysi birini amalga oshirish mumkinligini tahlil qilish;
3. ichki bank biznesining rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Gipoteza: Banklar raqobat muhitida yashashni ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishlari kerak.

Tadqiqot usullari: deduksiya, induksiya, tahlil, taqqoslash.

Erishilgan natijalar: chet el tajribasi asosida banklarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarurati tasdiqlandi va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Banklarning asosiy faoliyat ko'rsatadigan faoliyat turi an'anaviy ravishda kreditlashdir. Shu bilan birga, ularning aksariyati asosan iste'mol kreditiga, kamroq darajada - ipoteka kreditlari va yuridik shaxslarga kredit berishga qaratilgan. Bundan tashqari, bu turlar banklar uchun eng kam xavfli hisoblanadi. Shuning uchun ular qimmatbaho **skoring** tizimlarini sotib olish va qarz oluvchilarni baholash sifatini yaxshilash uchun pul sarflash iqtisodiy jihatdan noto’gridir.

Biroq, bank tizimi sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Iste'mol kreditlash orqali ortiqcha daromadlarni olish imkoniyatlari payoniga yetadi. Banklar yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqishlari zarur. Kim bosh rolni o‘z zimmasiga olsa, sezilarli raqobatbardosh mahsulot afzalliklarga ega bo‘ladi.

Bu yerda bank yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish uchun lokomotiv hisoblanadi, u butun ichki bank sektorining o'sish drayveri hisoblanadi.

Banklar an’anaviy ravishda innovatsiyalarni amalga oshirishda kashshof bo‘lishgan. Shuning uchun ichki bank sektorida ilg'or texnologiyalarni qo'llash albatta boshqa sohalardagi o'zgarishlarni ham nazarda tutadi, bu esa iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga va uning o'sish sur'atlarining oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatda innovatsion bank faoliyatini kengaytirish bank faoliyatining barcha yo‘nalishlarida ilg‘or raqamli texnologiyalarni ommaviy joriy etish va noan’anaviy bank xizmatlarini joriy etish tufayli amalga oshiriladi

Ichki kredit institutlarida raqamli texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi xarajatlarni kamaytiradi, yangi mijozlarni jalb qiladi va operatsiyalar samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi banklar jahon banklaridan ortda qolib ketmaydi, ba’zida hatto ulardan ham ustun keladi. Buning

asosiy sababi, bu nisbatan yaqinda shakllanganligi bilan bog'langan, buning natijasida eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish va eng yaxshi amaliyotlarni amalga oshirish imkoni paydo bo'ldi.

Dunyoda bo’lib o’tgan pandemiya bank xizmatlari bozoridagi yangi ehtiyojlarni oshkor qildi. Zamonaviy realliklar hozirda aksariyat bank mahsulotlarini onlayn tarzda rasmiylashtirish mumkinligiga olib keldi. Yaqin kelajakda ayrim kredit tashkilotlari butunlay onlayn formatga o‘tadi. Ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalanish bank operatsiyalari rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek bank sektori anchadan beri onlayn formatdagi tranzaktsiyalarni o'tkazish yo'lida harakat qilib kelmoqda. Pandemiya bu tendentsiyani kuchaytirdi xolos. Shunday qilib, ko'plab banklar uzoq vaqtdan beri hujjatli va valyuta operatsiyalarini onlayn konsalting rejimiga butunlay o'tkazishni rejalashtirmoqdalar, tegishli bo'limlarni bekor qilmoqdalar.

RBC prognozlariga ko‘ra, raqamlashtirish banklarning xarajatlarini 10-15%ga kamaytirishi mumkin. Biroq, biz u erda to'xtab turolmaymiz. Raqamlashtirish nafaqat masofaviy ish formatiga o'tishni o'z ichiga oladi. Rahbarlar birinchi bo‘lib o‘z mijozlarini tushunishni va ehtiyojlari atrofida ekotizim qurishni o‘rganadigan o‘sha banklar bo‘ladi.

Shuning uchun bank faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Katta ma'lumotlar texnologiyalari endi ko'proq va tez-tez muhokama qilinmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ***Big data vositalari*** faoliyatning barcha sohalarida quyidagilar tufayli samarali:

1. xarajatlarni kamaytirish va biznes samaradorligini oshirish;
2. maqsadli mahsulotni shakllantirish orqali maqsadli marketingni optimallashtirish;
3. operatsiyalar xavfsizligini oshirish;
4. kredit risklarini kamaytirish;
5. joriy moliyaviy prognozlarga, shuningdek strategik rejalashtirishga ko'maklashish;
6. personal bilan ishlash samaradorligini oshirish;

- hisobotlarni tezda olish.

Biroq, O'zbekiston bo'yicha hali Big Data haqida ko'p gap ketmoqda , ular bu texnologiyani qo'llashni e'lon qilishadi, lekin aslida uning nima ekanligini kamdan-kam odam tushunadi. Banklar bu texnologiyalarni amalga oshirishga urinishmoqda, ammo ularning aksariyati hali haqiqiy tijorat daromadini ololmadi.

O'zbekiston banklarida **Big Data***ning joriy etilishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablardan biri* moliyaviy resurslarning yetishmasligidir. Shunday qilib, *McKinsey &Company* ma'lumotlariga ko'ra, ilg'or analitika va *Big Data texnologiyasidan foydalanish* bank bozoridagi dunyo liderlarining umumiy daromad strukturasining 30-40% ni tashkil etadi.

Biroq, "***Big Data****" ko'* plab yangi raqamli texnologiyalardan biri xolos. Chet el banklarining tajribasidan ko'rinib turibdiki, bu sohaning kelajagi robototexnikadan foydalanish, video sotish, sun'iy intellektni rivojlantirishda yotadi. Ushbu bosqichda ular allaqachon mijozlar bilan ishlashda uzluksiz qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlaridan foydalanadigan shtabga mutaxassislarni keng joriy etmoqdalar, yani - mijozlarni jalb qilishdan tortib, ularga xizmat ko'rsatishgacha. **CRM** platformasiga qurilgan skoring echimlari hisobi, shaxsiy tavsiyalar va maslahatlar, tijorat tahlilidir.

An'anaviy bo'lmagan bank xizmatlarini rivojlantirish bank faoliyatining yana bir istiqbolli sohasidir. Banklar bo'limlarini tobora ko'proq eslatmoqda, bu erda mijoz istalgan taqdirda har qanday xizmat yoki mahsulotni olishi mumkin. Bank qancha ko'p bunday takliflarni taqdim etishi mumkin bo'lsa, u shunchalik sodiq mijozlar bazasiga ega bo'ladi. Kelajak moliyaviy supermarketlarga tegishli.

Mahsulot liniyasini kengaytirish uchun banklar dasturiy ta'minot, ta'minot va boshqalarni taqdim etadigan uchinchi tomon firmalari va ishlab chiquvchilari bilan sheriklikni rivojlantirishlari kerak. Bu esa moliya institutlariga raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Rossiyaning "**Tinkoff Bank**" onlayn ipoteka brokeri xizmatini ishga tushirdi,

Otkritie Bank o'tkazmalarni amalga oshirishda foydalanuvchini fotosurat orqali aniqlaydi. **VTB** va **Sberbank** kabi gigantlar esa allaqachon alohida takliflar yaratish uchun bashoratli analitikalarni amalga oshirgan.

Bunday texnologiyalarning keng joriy etilishi banklarga an’anaviy formatdan moliyaviy ekotizimga o‘tish imkonini beradi. Bu shuni anglatadiki, bank xizmatlaridan tashqari, kredit institutlari tobora ko'proq telekommunikatsiya, chakana savdo va boshqa xizmatlarni taqdim etadi.

Shunday qilib, kelajak davrga rioya qiladigan va zamonaviy bank mahsulotlari va xizmatlarini, shu jumladan bank bo'lmagan xizmatlarni taklif qiladigan banklarga tegishli. Innovatsion faoliyat sifatini yaxshilashning mumkin bo'lgan variantlaridan biri bu yangi biznes - nobankni yaratishdir, uni ekotizimga kiritish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha o'zimizning innovatsiya laboratoriyalarimizni yaratish tavsiya etiladi. Bunday ixtisoslashgan markazlar mavjud, Masalan, ***Standart Bank*** (Janubiy Afrika), ***Kapital One*** (AQSh), ***Commonwealth Bank*** (Avstraliya) kabi banklarda. Laboratoriyalarga ega bo'lish bilan faqat bir nechta bank maqtanishi mumkin. Biroq, banklarda bunday laboratoriyalar mavjud bo'lsa ham, ular mijozlar bazasi bilan ishlashning yangi mexanizmlarini o'rganish bilan ko'proq shug'ullanmoqdalar. Xususan, **Sberbank** neyroxirurgiya va inson xulq-atvori laboratoriyasini yaratganligini e'lon qildi, bu ushbu tuzilma xodimlarining ish samaradorligini oshirishga yordam berishi kerak. **Otkritie, Sberbank** va **VTB** mijozlarni psixologik turlar bo'yicha bo'lishga harakat qilmoqda. Bu esa muloqotning to'g'ri usulini tanlash va muammoli vaziyatlarni yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish imkonini beradi. Shunday qilib, bizning laboratoriyalarimiz yangi mahsulotlarni ishlab chiqmaydi, balki xaridorni qanday sotib olishni aniqlaydi

Shunday qilib, bank tizimi global o‘zgarishlar arafasida turibdi. Ular mahsulot liniyasiga, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishiga, bank biznes modelining o‘zida o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatadi. Va faqat ushbu printsiplarga rioya qilgan banklar raqobatbardosh bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Artemov, S. Dlya bol'shikh i bogatnykh [Katta va boylar uchun] / S. Artemov // Kommersant Bank. Qo'llash. - M. - 2020. - No 226. - S. 2.
2. Kokunova D.V., Nekhamkin A.N., Malashenko V.M. O'zbek banklarida risklarni boshqarish tizimini isloh qilishning optimallashtirish modeli / Bryansk davlat universiteti byulleteni. -2013.-No3.-S. 199-202.
3. Nikitina E.S. Zamonaviy Rossiyaning hayotiy zarurati sifatida iqtisodiy ta'lim sifatini oshirish / E.S. Nikitina // Universitetda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish, 2018. - S. 197-202.
4. Sevryukova S.V. Aholining tashkil topgan jamg'armalarini shakllantirishning transformatsiya mexanizmlarini modellashtirish / S.V. Sevryukova // Fan va biznes: rivojlanish yo'llari. - Moskva: TMBprint. - 2015. - No 4(46). - S. 127-130.
5. Innovatsiyalar Rossiyaning bank sohasini qanday o'zgartiradi ? • RBC [Elektronnyi resurs].-Rezhim dostupa: https://trends.rbc.ru/trends/innovation/5d63fd8f9a7947e067daea90.
6. Стратегия реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы. Указ Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года ПФ-5992.
7. www.cbu.uz.- Интернет сайт Центрального банка Республики Узбекистан.
8. www.mineconomy.uz.- Интернет сайт министерства экономики Республики Узбекистан.
9. Управление инновациями в банковской сфере. Инновации и управление организациями 2011 №1. Стр. 4-8
10. Принципы и механизмы повышения эффективности банковской деятельности. Кох Лариса Вячеславовна, Автореферат. http://www.isuct.ru

BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Mahmudov Rasuljon Bahodirovich
“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY”
NOTM katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda banklar juda ko'p turli xil xizmatlarni taqdim etadilar: sug'urta xizmatlari, pul muomalasi va kredit munosabatlarini shakllantirish va moliyalashtirish, qimmatli qog'ozlar bilan ishlash, vositachi sifatida operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek mulkni boshqarish. Mavjud masofaviy bank xizmatlarini bozorida esa mijozlarga kredit va kredit kartalari, debet va ish haqi kartalari, virtual kartalar, joriy hisobvaraqlar, milliy va xorijiy valyutadagi depozitlar va o‘kazmalar, aktsiyalar, obligatsiyalar, valyuta ayirboshlash, trast operatsiyalari va konsalting kabi xizmatlar taklif etiladi.

Bank xizmatlarini takomillashtirishning muhim va istiqbolli yo‘nalishi bu - **masofaviy**, ya’ni **masofaviy** bank xizmatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Buni bir qator sabablarni ta'kidlash joiz:

1. yirik korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi darajasini yaratish;
2. kichik va o'rta biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko'rsatishda raqobatdosh ustunlikning o'sishi;
3. tijorat banklari va ularning mijozlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning qulay va samarali mexanizmlarini yaratish.
4. masofaviy bank hizmati har bir mizozga vaqt chegarasiz ya‘ni o‘z hisob raqamini yigirma to‘rt soat boshqarish va nazorat qilish imonini beradi;
5. to‘lovlarni o‘tkazish;
6. to‘lov o‘tishi bosqichlarini kuzatish;
7. barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bank mijozlari uchun xizmat ko'rsatishning ushbu modifikatsiyasi xizmatlar va mahsulotlar haqida ma'lumot olish, anketalar va blankalarni to'ldirish, bank mahsulotlari va xizmatlarini olish uchun bank bilan ishlashda xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va moliyaviy hamda vaqt xarajatlarini kamaytirishni anglatadi, shuningdek, undan foydalanish va uni nazorat qilish. Bank uchun bu samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish darajasini yo‘qotmasdan mijozlar bazasini sezilarli darajada kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Elektron bank xizmatlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilar ekanmiz, keyingi yillarda naqd pulsiz hisob-kitoblar sezilarli darajada oshgani yaqqol ko‘rinib turibdi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi orqali amalga oshirilgan naqd pulsiz pul o‘tkazmalari soni va hajmining dinamikasi naqd pulsiz aylanmaning ko‘payishi va tranzaksiya talabini, birinchi navbatda, kredit tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishning uzoq muddatli tendentsiyasidan dalolat beradi. Iqtisodiyotning bank sektoridagi to‘lov aylanmasining tahlili shuni ko‘rsatdiki, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi orqali amalga oshirilgan naqd pulsiz pul o‘tkazmalari soni va hajmi

dinamikasi, birinchi navbatda kredit tashkilotlarining tranzaksiya talabini qondirish uchun bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, naqd pulsiz hisob-kitoblar va pul o‘tkazmalarining uzoq muddatli o‘sishini ko‘rsatmoqda. Naqd pulsiz pul o‘tkazmalarining o‘rtacha kunlik hajmi dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha kunlik hajmlarda har yili o‘sish kuzatilmoqda. To‘lov vositalarining boshqa turlari bo‘yicha 2018 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda naqd pulsiz o‘tkazmalar ulushining kamayishi kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtda bank sohasida axborot xavfsizligining ahamiyatiga e'tibor keskin ortdi. Bu bank ichidagi ma'lumotlar oqimining tez o'sib borayotgani bilan bog'liq, bundan tashqari, ularning aksariyati maxfiylikni ta'minlash uchun yuqori talablarga ega. Masofaviy (elektron) bank xizmatlarining rivojlanishi banklar tomonidan bunday rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini tashkil etuvchi strategik rejalarini amalga oshirish bilan bog'liq. Masofaviy (elektron) bank bozori ishtirokchilari bir nechta rivojlanish strategiyalariga amal qilishlari mumkin, ular orasida uchta asosiy strategiya mavjud: xarajatlarni minimallashtirish, iste'molchilar guruhlarini farqlash va ma'lum bir mahsulotga e'tibor qaratish.

Ushbu uchta asosiy strategiyaga muvofiq, har bir strategiya doirasida masofaviy (elektron) bankingni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin:

1) xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini amalga oshirishda sa'yharakatlarni masofaviy (elektron) bank xizmatlari narxini pasaytirishga yo'naltirish kerak;

